


O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI  
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.  
ILMIY  
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi  
Yilda 6 marta chiqadi



**НАУЧНЫЙ  
ВЕСТНИК.  
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года  
Выходит 6 раз в год

# FarDU. ILMIY XABARLAR – НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК.ФЕРГУ

**Muassis:** Farg'ona davlat universiteti.

“FarDU. Ilmiy xabarlar – Научный вестник. ФерГУ – Scientific journal of the Fergana State University” jurnali bir yilda olti marta elektron shaklda nashr etiladi.

Jurnal pedagogika, filologiya, tarix, falsafa, siyosat, kimyo, biologiya hamda geografiya fanlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

Jurnaldan maqola ko'chirib bosilganda, manba ko'rsatilishi shart.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 2-sentabrda 1109 raqami bilan ro'yxatga olingan.

Muqova dizayni va original maket FarDU tahriri-yashriyot bo'limida tayyorlandi.

## Tahrir hay'ati

**Bosh muharrir  
Mas'ul muharrir**

SHERMUHAMMADOV B.SH.  
AXMADALIYEV Y.I.

FARMONOV Sh. (O'zbekiston)	O'zRFA akademigi, f-m.f.d., prof.	ZUOGANG PENG (Xitoy)	Janubiy-q'arbiy universitet, b.f.d., prof
ZAYNOBIDDINOV S (O'zbekiston)	O'zRFA akademigi, f-m.f.d., prof	PANASYUK M (Rossiya)	Qozon federal universiteti, g.f.d, profr
AZAMOV A (O'zbekiston)	O'zRFA akademigi, f-m.f.d., prof	VALI SAVASH YYELEK (Turkiya)	Ankara Hoji Bayram Veli universiteti fil.
SAGDULLAYEV Sh (O'zbekiston)	O'zRFA t.f.d., prof	SIROJIDDINOV Sh (O'zbekiston)	f.d., prof
TURAYEV A. (O'zbekiston)	O'zRFA akademigi, k-b,f.d., prof	ABADI, TOTOK WAHYU (Indonesia)	Alisher Navoiy nomidagi ToshDO'TAU akademigi, fil.f.d., prof
RASHIDOVA S. (O'zbekiston)	O'zRFA k.f.d., prof	SCOTT LEVI (AQSH)	Universitas Muhammadiyah Sidoarjo,
ABDULLAEVA Z (Qirg'iziston)	OshDU k.f.n., dots	AZIYA ZHUMABAYEVA (Qozog'iston)	Siyosat va xalqaro huquq.
TOJIBOYEV K. (O'zbekiston)	O'zRFA akademigi, b.f.d., prof	SANIYA NURGALIYEVA (Turkiya)	Ohio State University, PhD, prof
G'ULOMOV S. (O'zbekiston)	O'zRFA akademigi, i.f.d, prof	SALTANAT ABILDINA (Qozog'iston)	Abay nomidagi Qozoq milliy pedagogika universiteti
JUMABEKOVA B (Qozog'iston)	b.f.d., prof		Ataturk University
			E. A. Buketov nomidagi Qaragandi davlat universiteti

## Tahririyat kengashi

### PEDAGOGIKA BO'YICHA

EGAMBERDIYEVA T.	FarDU, p.f.d., prof.	DAVLYATOVA G.	FarDU, p.f.n., dots.
XONKELDIYEV Sh.	FarDU, p.f.d., prof.	BAYDJANOV B.	FarDU, p.f.n., dots.
TOJIBOYEVA H.	O'z Res FA Pedagogika ITI p.f.d. (Dsc)	ABBASOVA N.	FarDU, p.f.f.d., dots.
QURBONOVA B.	FarDU, p.f.d. (DSc), prof	GOFUROVA N.	FarDU, p.f.f.d.
O'RINOVA N.	FarDU, p.f.n., dots.	URAIMOV S.	FarDU, p.f.f.d., dots. (DSc)

**Bo'lim boshlog'i:** Zokirov I.I., b.f.d.,prof.

**Texnik muharrirlar:** Sheraliyeva J.  
Mirkarimova Sh.

**Musahhihlar:** Mahmudov F.  
O'rinboyev I.

**Tahririyat manzili:**

150100, Farg'ona shahri, Murabbiylar ko'chasi, 19-uy.  
Tel.: (0373) 244-44-57. Mobil tel.: (+99891) 670-74-60  
Sayt: [www.fdu.uz](http://www.fdu.uz). Jurnal sayti: Jouranal.fdu.uz

<b>B.Sh.Shermuhammadov, Q.B.Qurbanova</b>	
Oliy ta'limda talabalarни ijtimoiy hamkorlikka tayyorlash metodikasini takomillashtirish.....	5
<b>T.Эгамбердиева, С.Юлдашев</b>	
Исторические корни народных игр .....	11
<b>A.A.Turaханов</b>	
Факторы формирования психологической устойчивости у будущих военных	
руководителей к негативным идеям и социальным угрозам .....	17
<b>N.R.Gafurova</b>	
Advanced mnemonic techniques for students in language courses .....	23
<b>A.N.Qosimov</b>	
O'quvchilarda sport vositasida milliy identiklikni shakllantirishning ijtimoiy-	
pedagogik asoslari.....	30
<b>N.R.Gafurova</b>	
Developing critical thinking skills through integration of artificial intelligence technologies in	
reading and writing at Fergana State University.....	36
<b>M.M.Yuldashev</b>	
O'quvchi organizmining funksional imkoniyati va jismoniy yuklamalarga moslashuvi .....	42
<b>Sh.A.Ibragimova</b>	
Ishbilarmonlikning ijtimoiy-ma'rifiy va pedagogik jihatdan o'rganilish zarurati va uni	
rivojlanish genezisi.....	46
<b>N.R.Gafurova</b>	
Teaching english through film: a contextual approach to language learning.....	52
<b>D.A.Abduraxmonov</b>	
Bo'lajak pedagoglarda kreativ-pedagogik yondashuv asosida kasbiy kompetentlikni	
rivojlantirish bosqichlari.....	56
<b>J.V.Solijonov</b>	
Bo'lajak pedagoglarda mantiqiy tafakkurni rivojlantirishning ilmiy-pedagogik asoslari .....	59
<b>N.T.Mirzamaxmudova</b>	
Raqamli ta'lim sharoitida bo'lajak o'qituvchilarining mustaqil ta'lim faoliyati metodikasini	
rivojlantirishning metodologik jihatlari.....	62
<b>N.R.Gafurova</b>	
The effect of integrating literature into second language classrooms on student engagement in	
higher education institutions.....	66
<b>D.A.Maxmudova</b>	
The role of technology in language teaching: enhancing engagement through digital tools.....	70
<b>D.O.Gulamova</b>	
Imom Al - Buxoriy ma'naviy merosining yoshlarni komillik ruhida tarbiyalashdagi ahamiyati .....	76
<b>N.R.Gafurova</b>	
The impact of creative writing exercises on language proficiency and self-expression.....	82
<b>B.M.Artikova</b>	
Innovative approaches to developing professional competence in students of technical higher	
education institutions (based on the example of the building and construction specialty) .....	89
<b>M.N.Haytboyeva</b>	
"Rivojlanayotgan sun'iy intellekt davrida ta'lim: ChatGPT imkoniyatlari yordamida	
o'qitish va o'rganishni rivojlantirish" .....	93
<b>N.U.Jamalova</b>	
Vitagen ta'lim texnologiyalarining nazariy asoslari va gumanitar fanlarga tatbiqi .....	97
<b>Sh.R.Temirov</b>	
Umumta'lim muassasalarining boshlang'ich sinf o'quvchilarini jismoniy rivojlanishida gimnastika	
mashg'ulotlarining samaradorligi.....	101
<b>N.R.Gafurova</b>	
The impact of online learning platforms on school education .....	108



UO'K: 27.08:373.02(072)

**O'QUVCHI ORGANIZMINING FUNKSIONAL IMKONIYATI VA JISMONIY YUKLAMALARGA MOSLASHUVI**

**ФУНКЦИОНАЛЬНЫЕ ВОЗМОЖНОСТИ ОРГАНИЗМА УЧЕНИКА И АДАПТАЦИЯ К ФИЗИЧЕСКИМ НАГРУЗКАМ**

**THE FUNCTIONAL CAPABILITIES OF THE STUDENT'S ORGANISM AND ADAPTATION TO PHYSICAL LOADS**

Yuldashev Ma'mirjon Mamajonovich 

Farg'onan davlat universiteti, Jismoniy madaniyat nazariyasi kafedrasi katta o'qituvchisi

*Annotatsiya*

*Jismoniy mashqlar bilan shug'ullanish mashg'ulotlari o'zining xususiyatlari ko'ra vujudimiz a'zolarining funksional imkoniyati bilan bog'liq. Maqolada shug'ullanuvchi organizmi a'zolarining xizmati xolatining darajasini – shug'ullanganligi (mashqlanganligi)ni bilmay o'ziga ortiqcha jismoniy talablar qo'yishi holati o'quvchini mashg'ulotlardan bezdiradi.*

*Аннотация*

*Физические упражнения и занятия связаны с функциональными возможностями нашего организма. В статье рассматривается уровень состояния функционирования органов занимающегося, который может привести к тому, что он, не осознавая этого, ставит перед собой чрезмерные физические требования, что может оттолкнуть ученика от занятий.*

*Abstract*

*Physical exercise activities are related to the functional capabilities of our body parts due to their specific characteristics. The article discusses the situation where a student, unaware of the level of functional capacity of their body parts, imposes excessive physical demands on themselves, which can lead to a reluctance to engage in activities.*

**Kalit so'zlar:** sog'lomlashtirish, jismoniy mashqlar, funksional imkoniyat, yurak-tomir tizimi, mashq qilinganlik, yurak qisqarishi chastotasi (YQCh), jismoniy yuklama, tajribalar, yurak hajmi, o'sish davri, qon aylanish tezligi, jismoniy tayyorqarlik, yurak mushaklari, marafon yugurish, dam olish, o'quv dasturlari, o'quv jarayoni, jismoniy sifatlar, o'quvchilarni tayyorlash.

**Ключевые слова:** оздоровление, физические упражнения, функциональные возможности, сердечно-сосудистая система уровень тренированности, частота сокращений сердца (ЧСС), физическая нагрузка, эксперименты объем сердца, период роста, скорость кровообращения, физическая подготовка, мышцы сердца, марафонский бег, отдых, учебные программы, учебный процесс, физические качества, подготовка учащихся.

**Key words:** health improvement, physical exercises, functional capacity, cardiovascular system, training status, heart rate (HR), physical load, experiments, heart volume, growth period, blood circulation rate, physical fitness, heart muscles, marathon running, rest, educational programs, educational process, physical qualities, student preparation.

**KIRISH**

Yosh avlodni sog'lom va barkamol, jismoniy baquvvat qilib tarbiyalashga imkon beradigan, ularning jismoniy sifatlarini rivojlantirishga qaratilgan jismoniy tarbiya ni milliylashtirish zarur. Shu bois jismoniy sifatlarni ilmiy jihatdan tadqiq etish, ularni maktab, bog'cha o'quv dasturlariga kiritish, ijtimoiy-tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lgan sport turlarini sport darajasiga ko'tarish jismoniy tarbiya fani oldidagi eng dolzarb muammolardan biridir.

Yosh avlodni ma'naviy boy, axloqiy pok, jismoniy barkamol qilib tarbiyalash bugungi kunda pedagogika fani oldidagi muhim masalalaridan biridir. Yosh avlodning jismoniy sifatlarini rivojlantirish juda qulay. Shuning uchun boshlang'ich sinf o'quvchilar jismoniy tarbiyasida jismoniy sifatlarni rivojlantirish asosida ulardan foydalanishda yangi uslubiy yondashuvni izlash hamda ishlab chiqishga bag'ishlangan ilmiy tadqiqot ishimiz mavzusi juda dolzarb.

## PEDAGOGIKA

Ta'kidlash o'rinni, Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tomonidan 2018 yil 5 mart kuni qabul qilingan "Jismoniy tarbiya va sport sohasida davlat boshqaruvchi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmonida jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirish va iste'dodli yoshlarni saralash (seleksiya) sohasida maktabgcha ta'lif muassasalari, umumta'lif maktablari, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'lif muassasalari, oliv ta'lif muassasalari ustuvor yo'nalish etib belgilandi.

Ushbu siyosatning asosiy tamoyillaridan biri ta'lifning uzluksizligi va izchilligidir. Uzluksiz ta'lifning Kadrlar tayyorlash milliy modelining asosiy tarkibiy qismlaridan biri sifatida e'tirof etilishining sabablaridan biri ham ana shundadir.

Inson salomatligi jamiki bor narsaning hammasidan ustun va qimmat turadi. Ayniqsa insonni eng yoshligidanoq sog'lom qilib tarbiyalash, uni har tomonlama yetuk shaxs qilib tarbiyalash esa undan ham qimmat turadi.

O'sib kelayotgan yosh avlodni har tomonlama aqliy, axloqiy va jismoniy jihatdan rivojlantirish bo'lib, jismoniy tarbiya va sport muhim ahamiyat kasb etadi.

Shu boisdan jismoniy tarbiya tizimida muhim tamoyilni joriy qilish uchun o'quvchilarning sog'ligini ta'minlash, jismoniy rivojlanganlik va jismoniy tayyorgarlikni takomillashtirish doimo dolzarb vazifalardan bo'lib kelgan.

### ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

O'quvchilarning jismoniy tayyorgarlik va jismoniy rivojlanish masalalari ko'pgina olimlar tomonidan o'rganilgan. Masalan, F.N.Nasriddinov, R.S.Salomov, T.S.Usmonxo'jayev, M.Y.Yunusova, Y.Y.Bondarevskiy, F.Xo'jayev kabi olimlarning tadqiqotlarida bolalarning jismoniy rivojlanishi va jismoniy tayyorgarligi, harakat faolligining sustligi aniqlangan. Shu bilan birga pedagogika fani ham yoshlarning jismoniy tarbiyasi, muntazam olib boriladigan mashg'ulotlar orqali jismoniy tarbiyaga ehtiyoj va qiziqishni uyg'otish muammolariga hamisha diqqat qilib kelmoqda.

Oxirgi yillarda ta'lif tizimida o'quvchi-yoshlarni jismoniy tayyorgarlik va jismoniy rivojlanish masalalarini hamda aholini jismoniy tarbiyasi bo'yicha bir qator muammolarni O'zbekiston Respublikasining yetakchi mutaxassislari, xorijiy ko'zga ko'ringan tajribali pedagoglar, ko'pchilik olimlar tomonidan (V.K.Balsevich, O.V.Verxoshanskiy, A.A.Gujalovskiy, L.P.Matveyev, F.A.Kerimov, Sh.X.Xankeldiyev, L.R.Ayrapetyans, R.Salamov, T.S.Usmonxo'jayev, K.Maxkamjonov, F.Xodjayev, K.D.Yarashev va boshqalar) nazariji jihatdan o'rgangan.

Ba'zi tadqiqotchilar (D.D.Sharipova, G.V.Goshupkin, N.B.Bernshteyn, R.S.Salamov, A.T.Sodikov, B.G.Boyboboyev, V.V.Semenov, T.S.Usmonxo'jayev, G.Y.Fokin Sh.X.Xankeldiyev, V.P.Filin, V.I.Platnov va boshkalar)ning ilmiy izlanishlarida turli xil sport mashqlari umumiyligi texnika asoslariga o'rgatishning maqsadga muvofiqligi va uning imkoniyatlari masalasi tadqiq qilingan hamda ular jismoniy tarbiya va sportni turli qirralarini ochishga harakat qilganlar.

### NATIJALAR VA MUHOKAMA

"Organizmingiz shug'ullanishga tayyormi?", "Yurak-tomir tizimingiz ko'rsatgichlarini aniqlash usullarini belgilang" deb qo'yan savolimizga so'rovda ishtirot etgan 9-sinf o'quvchilarining 70 nafaridan 81,3% i aniqlashni bilmaymiz, 90% i esa aniqlash usullarini o'rgatishmagan deb javob qaytardilar.

Sog'lom, mashq qilishga yangitdan kirishganlarning yuragi, jismoniy yuklama (zaryadka yoki ma'lum muddat yugurish yoki blshqa sog'lomlashtirish mashg'ulotlaridan) so'ng uning soni o'quvchilarda 130-150 tadan ortmasligi, mashg'ulotlar tugallangandan so'ng esa 10 daqqaqo o'tgandan keyin sanalganda YUQ dastlabki holatga qaytishini Qo'qon shahar 1-umumiy ta'lif maktabi 8-9-sinflar tajriba guruhiga tavsiya qilib kuzatdik. Tajribamizning dastlabki bosqichda organizmni ish qobiliyati dastlabki holatga o'z vaqtida qaytadigan o'quvchilar soni faqat 23%ni tashkil qildi xolos. Qizlar guruhida bu ko'rsatkich 15% atrofida.

Organizmning funksiyasi yurak faoliyati bilan bog'liq. Yurak hajmini tez kattalashishi 11-18 yosh davomida kuzatiladi. Uning uzunasiga o'lchami 15-17 yoshga yetganda, yangi tug'ilgan chaqaloqlarning o'lchamlariga nisbatan 3 martaga ortadi.

Yurak bo'shlig'inining hajmi 13-15 yoshda 250 sm<sup>3</sup> ni, kattalarda esa 250-300 sm<sup>3</sup> ni tashkil etdi. Agarda yetti yilda (7 dan 14 yoshgacha) uning hajmi 30-35% ga oshsa, to'rt yil davomida (14dan 18 yoshgacha) 60-70%ga kattalashadi. Yurak bo'shlig'i hajmining ortishi tomir yo'llarining ortishidan oldinroq

sodir bo'ladi. Yurak ko'pincha tananing umumiy o'lchamlarining oshib borishi darajasiga nisbatan ortda qoladi. 15-20 yoshdagi 10-15% o'g'il bolalar va qizlarda nisbatan «kichik» yurak qayd qilinadi, bu esa yuklamadan keyingi organizmni tiklanish jarayonini cho'zilishiga sabab bo'lishi aniqlangan.

Yurak qisqarish tezligi 15 yoshda minutiga 76 marta, 20 yoshli yigitlarda 65-70 marta, qizlarda esa 70-75 marta atrofida bo'ladi.

To'qimalarning kislород bilan ta'minlanishida qonning aylanish tezligi asosiy omillardan biri hisoblanadi. 14-16 yoshda qonning aylanish vaqt 18 sekundni, kattalarda 17-19 sek.ni tashkil etadi.

Yurak-tomir tizimini mustahkamlash uchun har tomonlama jismoniy tayyorgarlik, jismoniy yuklamalarni qat'iy meyorlash va asta-sekin oshirish muhim ahamiyatga ega.

Yuragi minutiga 70-72 marta uradigan, chiniqmagan odamning yuragi 60 yillik umri mobaynida dam olish uchun 20 yil sarflar ekan. Bir sutkada yurak bo'lmasi 16 soat, yurak qorinchasi 12 soat, yurakning o'zi – 4 soat dam olishi hisoblab chiqilgan (S.B.Lejnev).

Yurak mushaklarini mashqlanishi orqali qanchalik darajada yuklama ko'rgan bo'lsa shunchalik sekin (tejamli) qisqaradi va bu bilan yurakning dam olishi uchun ko'p vaqt tejaladi. Marafon yugurishi bilan shug'ullanuvchilarning yuragi minutiga 40-50 martagina qisqarishi kuzatilgan.

Yurakni nagruzkalarga moslanuvchanligini aniqlashni bilish ham bo'lajak sog'lom turmush tarzi (STT) jismoniy mdaniyatni sohibi organizmining funksional faolligining xususiyatlardan biri bo'lib, maxsus nazariy bilimlar sifatida umumiy ta'lim maktabi jismoniy tarbiya dasturining nazariy bilimlari tarzida o'qitilishi maqsadga muvofiqdir.

Shug'ullanuvchi o'quvchining funksional tayyorgarligi tarkibidagi xususiyatlardan biri o'zining yuragini jismoniy yuklamalarga moslashuvchanligini aniq tekshirishni bilishi, undan amalda foydalana olishidir. Yurakni jismoniy yuklamalarga moslanuvchanligini aniqlash uchun 5 daqqaqada tinch o'tirib, so'ng 15 soniya ichida YUQCH sini hisoblab, uni to'rtga ko'paytirib, 1 daqqaqada yurak urishini hisoblab, 30 soniya ichida 20 marta to'liq o'tirib turish mashqini bajaradi. Mashqni bajarish to'xtagandan so'ng ko'pi bilan 2-3 daqqaq o'tkazib YUQCH qayta sanalganda uning qisqarish soni dastlabki holatga qaytsa, shug'ullanuvchining yuragini jismoniy yuklamalarga moslanuvchanligi talab darajasidaligi ma'lum bo'ladi. Sog'lom turmush tarzi jismoniy madaniyatni sohibi o'zining yuragini jismoniy yuklamalarga moslashuvchanligini aniqlashni bilishlari shart. Shuningdek,, nafas mexanizmini sinash testlarini bilishi lozim.

Eksperimental guruh o'quvchilarining nafas tizimini ishchanligini aniqlash uchun sinalgan sinama: "Ikki marotaba nafas olib chiqarib, uchinchisini nafas olgandan so'ng chiqarmay ushslash" testidan foydalandik. Nafasni chiqarmay ushslash katta yoshdagilarda 50-60 soniya ni, o'quvchilari (o'rta, katta maktab yoshi)dagilarda 30-40 soniya ni tashkillashi lozim. Ayollar va qizlarda 10-15 soniya farqlanadi.

Tajriba guruhidagi o'quvchilarning (33 nafar) bu ko'sratkichi o'g'il bolalar-o'smirlarda normaga nisbatan mosligi 53,3% ni, qizlarda esa 46,4% ni tashkil etdi.

Atoqli biolog Jan Lamark o'zining "Birinchi qonuni" asarida (mashq qonuni) "Biron-bir a'zodan teztez va susaytirmay foydalanish asta-sekin shu a'zoni mustahkamlaydi, rivojlantiradi, yiriklashtiradi va undan qancha vaqt uzoq foydalanilsa, shuncha uzoqqa yetadigan kuch ato etadi, a'zodan muntazam foydalanimaslik esa uni sezdirmay zaiflashtiradi, tanazzulga olib keladi, izchil ravishda imkoniyatlarni toraytirib, oxir-oqibat uning yo'qolib ketishiga sabab bo'ladi", deb takidlagan.

Jan Lamarkning olamshumul qonuniyati tirk tabiatning umumiy qonunlaridan biri bo'lib, uni keyinchalik rusiy zabon zabardast olimlar P.F.Lesgaft, A.A.Uxtomskiy, I.P.Pavlov, G.F.Folbert, N.N.Yakovlev va boshqalar chuqurroq o'rganib tabiiy va tibbiy fanlar, keyinchalik esa jismoniy madaniyat nazariyasini undan ajralib chiqqan fanlarning rivojiga katta hissa qo'shdilar.

Jismining kamolotiga befarqlar, harakatlanishni xush ko'rmaydigan turmush tarzi bilan hayot kechiruvchilar yoki "sust harakat" faolligi sohiblarining mushaklarini faol harakatlardan yuzaga keladigan impulslarini past ta'sir kuchi, eng avvalo, bosh miya, so'ng boshqa ichki organlar ishiga salbiy ta'sir qilishi aniqlangan.

Qolaversa, bu holat davom etib nerv hujayralarining quvvati zahirasi, ularning immunial himoya darajasini keskin pasayishi, oshqozon-ichak trakti, osteoxandroz, radikulit va boshqa qator kasalliklarga chalinish xavfini kuchayishiga, modda almashinuvini buzilishi oqibatida yog' hujayralarining ko'payishi, tana massasini ortishi bilan tugallanadi.

## PEDAGOGIKA

Oqibati qo'shimcha vazn, uni ko'tarib yurish uchun harakat-tayanch apparati (oyoq, qo'l), bo'g'inlar, yurak, qon-tomir tizimi, nafas va boshqa a'zolarimizning xizmati uchun quvvatni yetishmaslik (kam quvvatlilik) kasalvandlik, organizmning hayotiy zahiralarini tez va besamar sarflanishi demakdir.

Organizmning funksional tayyorgarligining yuqori darajadaligi harakat faolligi (HF) uchun zamindir. Lekin harakat faolligi organlarimizning funksional tayyorgarligigagina bog'liq bo'may, sutkada, haftada, bir oyda va boshqa paytda kechadigan organizmimizning bioritmlari bilan bog'liq. Ayniqsa, sutkalik biologikritmlar ruhiyatimiz, kayfiyatimiz, ishchanligimiz va boshqalar bilan bog'liq bo'lib, uning kun davomida kechishiga ijobiy yoki salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Odatda organizmning funksional faolligi ko'pincha sutkaning kunduzgi vaqtiga to'g'ri keldi va u o'z ichiga: erta tongdan endokrin bezlar deb nomlanadigan buyrak ustidagi bezlar funksiyasi natijasida – qonga adrenalin va noradrenalin garmonlarini ajratib qo'shib yuborishi orgali nerv tizimimizning faolligiga ta'sir qilib, uni oshiradi yoki pasaytiradi, yurakning ishini jadallashtiradi, mushaklar qisqarishini samaradorligi, oshqozon-ichak trakti, tana harorati, yurak qisqarishi chastotasi, arterial bosim va boshqalarni zaruriy darajada ushlaydi, kislород iste'mol qilishning maksimal hajmiga ta'sir qiladi. Organizmning funksional holati soat 15-17 larga borib minimal darajaga tushadi. Biologik ritmlar kun davomida aqliy va jismoniy ish qobiliyatimizga ikki mahal ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Birinchi marta soat 9-13 lar orasida, ikkinchi marta soat esa 16-18 lar orasida ishimiz unumliroq bo'ladi, bu asab tizimimizning faolligini nisbatan oshishi bilan kuzatiladi. Faoliyat uchun xohishni pasayishi, nomaqbol kayfiyat, shug'ullanuvchida murabbiy topshiriqlariga befarqlik holatining yuzaga kelishi yuqorida qayd qilingan bioritmlarga bog'liq.

Ba'zi olimlar 23 kunlik jismoniy siklni, ayrimlari – 28 kunlik emotsiyonal siklni, yana boshqalari – 33 kunlik intellektual siklni mavjudligini va har bir siklning teng yarimi "plyus" (ish qobiliyatli oshgan) belgi ostida, ikkinchi yhami esa "minus" belgisi ostida o'tadi deb hisoblaydilar.

Harakat faolligi nafas olish, qon aylanishini ta'minlanishiga ijobiy ta'sir qiladi. Jismoniy mashqlar, harakatlarni bajarishda ishtirot etayotgan mushaklarda ko'plab mayda qon tomirlarni ochilishiga sabab bo'ladi. Harakatlar paytda ularning yo'llari kengayib qon oqishi tezlashadi. Harakat natijasida mushaklarni bir maromda qisqarishi va bo'shashishi yuzaga keladi va o'z navbatida vena qon tomirlaridagi qonni yurakka oqib kelishini yaxshilaydi, unga sharoit yaratadi.

Xulosa qilib shuni aytishimiz lozimki, o'quvchilarga o'z organizmining jismoniy imkoniyatlarini aniqlashni bilish, yuragi faoliyati, uning funksiyasi haqidagi boshlang'ich bilimlar 5-sinfdan o'qitilishi, jismoniy yuklamalarga moslanish darjasini aniqlovchi eng sodda sinamalarni (pulsni 130-150ga yetkazish usulida – 10 daqiqadan so'ng tiklanishi yoki 20 marta o'tirib-turishdan so'ng 2-3 daqiqada tiklanishi) o'qitish hozirgi kun talabidir. Chunki bu bilimlardan o'quvchilar STT jismoniy madaniyatni mashg'ulotlarida bir umr foydalanadilar. Masalan, J.Lamarkning I qonunini bir umr o'z dasturiga aylantirishlari lozim.

## XULOSALAR

1. Sog'lom turmush tarzi jismoniy madaniyatni sog'lom turmush tarzi fenomenining tarkibida o'zining ta'rifni, mazmuni, tuzllishi, vositalari, uslubiyotlari va qonuniyatlarini bilan alohida o'r'in tutadi va "Sog'lom turmush tarzi jismoniy madaniyati" predmeti deb atalish huquqiga ega.

2. Har bir inson umrining oxirigacha sog'lom bo'lishi va bu davrda o'z ish qobiliyatini yuqori darajadaligiga erishishi, ya'ni "yashash san'ati"ni egallashi, sog'lom turmush tarzi jismoniy madaniyatni mashg'ulotlari orgali amalga oshirilishi o'quvchining ongiga singdirilishi, soha mutaxasislari uchun qonuniyatga aylantirilishi lozim.

## ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Abdullayev A. Jismoniy madaniyat nazariyasи va metodikasi. OO'Yu larining jismoniy madaniyat bakalavrлari va magistrantлari uchun darslik. (3-to'ldirilgan nashri), "Poligraf Super Servis" Farg'ona.
2. Sh.Xankeldiyev, A. Abdullayev va boshqalar. Sog'lom turmush tarzi jismoniy madaniyati. Farg'ona- 2009-y.
3. Sh.Xankeldiyev, A. Abdullayev, N. Azizov, B.Haydarov, A.Xasanov Jismoniy mashqlar bilan shug'ullanish mashg'ulotlari. Farg'ona – 2011.
4. Yevseyev Yu.I.Fizicheskaya kultura,uch. pos., izd-ye 5-ye Rostov -na Donu, «Feniks» 2008 240 s.
5. Xankeldiyev Sh.X., Abdullayev A. Va boshqalar. "Umumiy ta'lim maktabi o'quvchilarining sog'lom turmush tarzi jismoniy madaniyati", o'quv qo'llanma "Farg'ona" nashryoti, 2011 y.- 332 b.